

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR Ning  
**YANGI O'ZBEKISTON**  
**RIVOJIGA TA'SIRI**

Xalqaro ilmiy-amaliy  
konferensiyasi to'plami

21 IYUN

2023





**RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING YANGI O'ZBEKISTON  
RIVOJIGA TA'SIRI**

**ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА РАЗВИТИЕ  
НОВОГО УЗБЕКИСТАНА**

**IMPACT OF DIGITAL TECHNOLOGIES ON THE DEVELOPMENT  
OF NEW UZBEKISTAN**

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi maqolalar to'plami



JUNE 21, 2023  
KOKAND UNIVERSITY

"O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" O'zbekiston Respublika Prezidentining 5847-sonli Farmonida ko'zda tutilgan vazifalardan biri – ilmiy izlanish yutuklarini amaliyatga joriy etish yo'li bilan fan sohalarini rivojlantirish, ya'ni xalqaro ilmiy hamjamiyatda e'tirof etilishiga xizmat qilishdir. Shu va boshqa tegishli farmonlarda va qarorlarda belgilangan vazifalarini amalga oshirish maqsadida 2023 yil 21-iyun kuni Qo'qon universiteti "Raqamli texnologiyalar va matematika" kafedrasi "Raqamli texnologiyalarning Yangi O'zbekiston rivojiga ta'siri" mavzusidagi xalqaro miqyosida o'tkaziladigan ilmiy-amaliy konferensiyasi maqolalar to'plamini e'lon qiladi

**MAS'UL MUHARRIR**

**Zahidov G'ofurjon Erkinovich** – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**TAHRIRIYAT HAY'ATI**

**G'ulomov Saidahrор Saidahmedovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, akademik;

**Ahmedov Durbek Qudratillayevich** - iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

**Mahmudov Nosir Mahmudovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

**Butaboyev Muhammadjon** - iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

**Islamov Anvar Ashirkulovich** - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent;

**Ruziev Shohruzbek Ravshan o'g'li** - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Mulaydinov Farxod Murotovich** – Qo'qon universiteti, Raqamli texnologiyalar va matematika kafedrasi mudiri

**Texnik muharrir – Solidjonov Dilyorjon Zoirjon o'g'li**

Ta'lif sifati yangi O'zbekiston taraqqiyotini yanada yuksaltirishning muhim omili / Raqamli texnologiyalarning Yangi O'zbekiston rivojiga ta'siri xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi to'plami. Kokand university, 2023 yil 21 iyun, - «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi» 2023.

© Matn. Mualliflar, 2023.

© Kokand university, 2023.

© «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», original maket, 2023.

38	INGLIZ TILI DARSLARIDA ONLINE PLATFORMALARIDAN FOYDALANISH ORQALI QIZIQARLI DARS MUHITINI TASHKIL QILISH - Dilyorjon Solidjonov  <b>3-SHO'BA. TIBIIYOTDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARDAN INSON SALAMATLIGI YO'LIDA FOYDALANISHNING ZAMONAVIY USUL VA VOSITALARI</b>	156-158
39	SHIFOKORLAR TOMONIDAN BEMORLARGA BERILADIGAN DORI RO'YHATINI RAQAMLASHTIRISH - Xakimova Dilnozaxon Sa'dulla qizi	160-163
40	AI IN THE MEDICAL FIELD: TRANSFORMING HEALTHCARE THROUGH INNOVATION - Erkinboev Sardorbek Ravshanbek o'g'li, Khasanov Akhmadjon Odiljon o'g'li, Erkinboyeva Madinabonu Afzaljon qizi	164-186
41	ИСПОЛЬЗОВАНИЕ АНАЛИТИКИ БОЛЬШИХ ДАННЫХ В ЗДРАВООХРАНЕНИИ - Имомназаров Хуршид Озодбаевич	187-190
42	ANORNING MEVASINING ZAMONAVIY XALQ TIBBIYOTIDA QO'LLANILISHI - Yusupova Moxidil Abdumutalibovna	191-194
43	DORIVOR XOM ASHYOSI PO'STLOQ XISOBLANGAN O'SIMLIKLARNI O 'RGANISH VA ULARDAN OLINADIGAN PREPARATLARNI TIBBIYOTDA QO'LLANILISHI - M.A.Abdurahimova, SH.Z.Tursunaliyev	195-197
44	DORIVOR XOM ASHYOSI PO'STLOQ XISOBLANGAN O'SIMLIKLARNI O 'RGANISH VA ULARDAN OLINADIGAN PREPARATLARNI TIBBIYOTDA QO'LLANILISHI - M. A. Abdurahimova	198-200
45	SOG'LIQNI SAQLASH VA XAVFSIZLIK XIZMATINING FUNKTSIONAL O'RGANISH VA TAHLIL QILISH - Xalmatov Misliddin Muxammadovich	201-203
46	TIBBIYOT TASVIRLARINI SEGMENTASIYA QILISH USULI - F.F. Meliyev	204-207
<b>4-SHO'BA. ILMIY VA TEXNIK ISHLANMALAR SOHASIDA INNOVATSİYALARNI ISHLAB CHIQISHDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH</b>		
47	FORECASTING GROSS DOMESTIC PRODUCT (GDP) AND GDP GROWTH: AN EXPLORATION OF IMPROVED PREDICTION USING MACHINE LEARNING ALGORITHMS - Azibaev Akhmadkhon Gulomjon ugli	209-214
48	ПОТОЧНЫЕ АЛГОРИТМЫ ШИФРОВАНИЯ С МАЛЫМ РАЗМЕРОМ ПАМЯТИ - Жураев Г.У., Икрамов А.А., Мухаммадиев Ф.Р.	215-217
49	АППАРАТНО-ОРИЕНТИРОВАННЫЕ ПОТОКОВЫЕ ШИФРЫ - Алаев Р.Х., Абдуллаев Т.Р., Бозоров О.Н., Фармонов Б.Д.	218-219
50	XARM 5ROBOTIDA INDUKTIV DATCHIK VA BO'G'INLAR SINXRON ISHLASH TIZIMINI LOYIHALASHVTOMATLASHTIRISH - Abbasxon Qobiljonov Anvar o'g'li, Mirzayev Oybek Mahmudjon o'g'li	220-225
51	ТЕХНОЛОГИИ БОЛЬШИХ ДАННЫХ: ИННОВАЦИОННЫЙ ПУТЬ РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА - Худайбердиев Отабек Абсаломович	226-229
52	ЦИФРОВОЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВО: КАК ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ МЕНЯЮТ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКИЙ ПРОЦЕСС - Ибрагимов Улмас Рахмонович	230-232
53	YUQORI MARGANETSLI YEYLISHGA BARDOSHLI 110G13L PO'LATNI ERITISH VA QUYISH TEKNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH - Xayitboyev Qudratbek Anvarbek o'g'li	233-237
54	ЦИФРОВАЯ ТЕХНОЛОГИЯ ПРИ СТРОИТЕЛЬНОЙ ЧАСТИ ЗДАНИЙ И СООРУЖЕНИЙ АВТОТРАНСПОРТНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ - Ишмуратов Хикмат Каҳарович	238-240

**DORIVOR XOM ASHYOSI PO'STLOQ XISOBLANGAN O'SIMLIKLARNI O'RGANISH VA  
ULARDAN OLINADIGAN PREPARATLARNI TIBBIYOTDA QO'LLANILISHI****M.A.Abdurahimova****SH.Z.Tursunaliyev**

Farg'ona davlat universiteti

**Annotatsiya:** O'zbekistonda dorivor xom ashyosi po'stloq xisoblangan o'simliklardan tibbiyotda va tabobatda qo'llanish borasida ko'p ishlar qilinyapti

**Аннотация:** В Узбекистане ведется большая работа по использованию лекарственного сырья из растений с корой в медицине и медицине.

**Kalit so'zlar:** Xalq tabobati, Olxasimon frangula, Po'stloq, tekis sinuvchan, suyuq ekstrakt.

Hozirgi vaqtida Xalqaro Sog'liqni - saqlash tashkilotining ma'lumotiga ko'ra sog'liqni-saqlashda foydalaniladigan dorivor vositalarning 70-75% kelib chiqishi jihatidan dorivor o'simliklar hisoblanadi. Xalq tabobati va rasmiy tibbièt dorivor o'simliklarini o'rGANISHNING respublikamizning mahalliy dorivor o'simlikshunosligidagi ahamiyati kattadur. Bu sohada O'zbekistonda amalga oshirilaётган ishlar va Respublikamiz Prezidenti va hukumatimiz tomonidan O'zbekistonda sog'liqni saqlashni zamonaviy tarzda rivojlantirish sohasidagi farmonlar, farmoyishlar buning isbotidur. Jumladan O'zbekistonda dorivor xom ashyosi po'stloq xisoblangan o'simliklardan tibbiyotda va tabobatda qo'llanish borasida ko'p ishlar qilinyapti .Masalan Olxasimon frangula – Frangula alnus Mill. (Rhamnus frangula L.); jumrudoshlar – Rhamnaceae oilasiga kiradi. Po'stloq erta bahorda (mart-aprel oylarida), o'simlik tanasida suv yurisha boshlaganda (barg chiqarmasdan oldin) yosh poya va shoxlaridan shilib olinadi. Geografik tarqalishi. MXD ning Yevropa, Kavkaz, Shimoliy Qozog'iston va G'arbiy Sibirining o'rmonlarida tarqagan. Po'stloq yig'ishdan oldin ularning ustidan lishayniklar pichoq bilan qirib tashlanadi. Po'stloq yig'ish uchun poya yoki shoxning ikki yeridan 30 sm uzunlikda ko'ndalangiga kesiladi. So'ngra kesilgan yerlarni bir yoki ikki joyidan uzunasiga kesib birlashtiriladi. Bunda po'stloq osonlik bilan naycha qki tarnovcha shaklida ko'chadi. Po'stloqlar quritilayotganda bir-birining ichiga kirib qolmasligi kerak, aks holda mahsulot yaxshi qurimay, mog'orlab ketadi.

Mahsulotning tashqi ko'rinishi. Tayyor mahsulot har xil uzunlikdagi naychasimon yoki tarnovchasimon po'stloqdan iborat. Po'stloq qalinligi 0,5–2 mm bo'lib, ustki tomoni silliq, sariq-qizil yoki qizil-qo'ng'ir rangga bo'yalgan. Po'stloqning tashqi probka qavatini asta qirilsa, qizil rangli ichki probka qavati ko'rindi (boshqa po'stloqlardan farqi). Mahsulot tekis sinuvchan, hidsiz va yoqimsiz achchiq mazaga ega. Po'stloqning ichki tomoni 0,5% li ishqor eritmasi bilan namlansa, to'q qizil rangga bo'yaladi (antratsen unumlariga reaksiya).

Mahsulotga ba'zi o'simliklar (jumrut, olxa, cheremuxa, kalina, tol va boshqalar) po'stlog'i aralashib qolishi mumkin. Bu o'simliklarning po'stlog'i asosan tashqi ko'rinishi, mikroskopik tuzilishi va kimyoviy tarkibi (sifat reaksiyalar yordamida aniqlanadi) bilan frangula o'simligi po'stlog'idan farq qiladi. Frangula po'stlog'ining preparatlari surgi dori sifatida ishlatiladi. Yangi yig'ilgan, bir yil saqlanmagan po'stloq ishlatilsa qusturuvchi, ko'ngil aynituvchi va me'da-ichakni og'rituvchi ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun tibbiyotda bir yil saqlangan yoki 100° haroratda bir soat qizdirilgan po'stloq ishlatiladi. Bunday po'stloq qustiruvchi va ko'ngil aynatuvchi hamda me'da va ichakni og'rituvchi ta'sir ko'rsatmaydi. Yangi tayyorlangan po'stloq tarkibidagi birlamchi glikozidlar – flangularozid, antranol-glyukofrangulin va uning bimolekulyar formasi – digidrostanol-glyukofrangulin kishi organizmiga yomon ta'sir etadi. Po'stloqni bir yil saqlaganda yoki 100° haroratda bir soat qizdirilganda bu moddalar oksidlanib, antratsenning oksidlangan unumlariga: glyukofrangulin va digidrostanol-glyukofrangulinga aylanadi. Natijada mahsulotning yuqorida ko'rsatib o'tilgan noxush ta'sirlari yo'qoladi.

Dorivor preparatlari. Qaynatma, suyuq ekstrakt, quruq eksrakt (tabletka holida chiqariladi), sharbat, ramnil (po'stloqning quruq, standartlashtirilgan preparati, tabletka holida chiqariladi). Bulardan tashqari, mayda qirqilgan po'stloq ich yumshatuvchi (surgi) va bavosil kasalliklarida ishlatiladigan choy-yig'malar tarkibiga kiradi.

Frangula o'simligi bilan bir qatorda po'stlog'i tarkibida bir xil miqdorda va bir xil antratsen unumlari saqlaydigan jumrutning Zakavkazye o'rmonlarida o'sadigan turi – Rhamnus imeretina Booth. ni ishlatishga ruxsat etiladi. Bu o'simlikning po'stlog'idan tayyorlangan suyuq ekstrakt (boshqa dorivor preparatlar bu turdan tayyorlanmaydi) surunkali qabziyatda surgi sifatida qo'llaniladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. "Tayyor dori turlari texnologiyasi" (laboratoriya mashg'ulotlarini bajarish bo'yicha o'quv uslubiy qo'llanma. Toshkent. "KOLORINT GROU' MCHJ" 2012. 132 b.
2. Dori texnologiyasi. Toshkent. 2009. 1 tom. 236 b.
3. Tayyor dori turlari texnologiyasi. Toshkent. "KARLO xususiy firmasi". 2007. 213 b. (laboratoriya mashg'ulotlari uchun qo'llanma)
4. Руководство к лабораторным занятиям технологии лекарственных форм. Алмати. "Эффект". 2007. 239 с.
5. Dori texnologiyasi. Toshkent. 2009. 3 tom. 252 b.
6. Tayyor dori turlari texnologiyasi. Toshkent. 2010. "EXTREMUM 'RESS". 367 b. (darslik)
7. Farmakopiya dorivor o'simliklari o'quv qo'llanma. 2023y
8. Turdaliev A. T. et al. Influence of irrigation with salty water on the composition of absorbed bases of hydromorphic structure of soil // IOP Conference Series: Earth and Environmental Science. – IOP Publishing, 2022. – T. 1068. – №. 1. – C. 012047.

9. Абдураҳимова М. А. Dorivor o 'simliklarning o 'sishi va rivojlanishi va dorivor xususiyatlaridan foydalanish //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. D3. – С. 35-42.
10. Abdurahimova M. et al. HEALING PROPERTIES OF MEDICINAL WHITE AND BLACK (SESAME) SESAME //Science and Innovation. – 2022. – Т. 1. – №. 7. – С. 100-104.
11. Abdurahimova M., Nazirjonov U., Muhammadjonov R. DORIVOR ECHINACEA PURPUREA O 'SIMLIGINING FOYDALI XUSUSIYATLARI VA UNDAN HALQ TABOBATIDA FOYALANISH //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. D6. – С. 197-201.
12. Abdurahimova M., Mamadaliyeva D., Siddiqova G. DORIVOR O 'SIMLIK ISIRIQNING SHIFOBAXSH XUSUSIYATLARI //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. D6. – С. 185-188.
13. Abdurahimova M., Nazirjonov U., Muhammadjonov R. USEFUL PROPERTIES OF THE MEDICINAL PLANT ESHINACEA PURPUREA AND ITS USAGE IN FOLK MEDICINE //Science and Innovation. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 197-201.